

JustFiction!  
Edition 

# IJOD SEHRI VA MO'JIZALARI

Ijodiy to'plam

Nargizabonu Mamadaliyeva

# IJOD SEHRI VA MO‘JIZALARI

**IJODIY TO‘PLAM**

**Muallif: Nargizabonu Mamadaliyeva**

**JustFiction Edition**

**2024**

## **Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

### **Publisher:**

JustFiction! Edition is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom  
Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-620-6-74754-3**

Copyright© Nargizabonu Mamadaliyeva

Copyright© 2024 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and  
OmniScriptum S.R.L publishing group



***Mamadaliyeva Nargizabonu Umurzaqaliyevna***

*1987-yil 12-dekabr kuni Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida tavallud topgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi va shu fakultet lideri. Juda ko‘p onlayn va offlayn ko‘rik tanlovlar, konferensiyalar ishtirokchisi.*

*2003-yili Toshkent Bank hisob-kredit kollejiga eng yuqori ball bilan kirib, bu o‘qishni 2006-yili imtiyozli qizil diplom bilan tamomladi.*

*2009-yili “Sardorlar maktabi”ning maxsus kursida o‘qib, Oltin diplom bilan bitirdi.*

*2021-yili 25-mart kuni “Respublika filologlari” kanalidagi “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan "Men nechun sevaman O‘zbekistonni?" mavzusida o‘tkazilgan tanlovning “Eng yaxshi ijodkor” yo‘nalishida faol ishtiroki uchun 3-darajali diplom va sertifikat bilan taqdirlandi.*

*2022-yil 7-fevral kuni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabalari orasida Alisher Navoiy tug‘ilgan kuni munosabati bilan o‘tkazilgan “Alisher Navoiy—g‘azal mulkining sultoni” nomidagi “Eng yaxshi she’r” tanlovida ishtirok etib 3-o‘rin egalladi.*

2023-yil u uchun omadli va yutuqlarga boy bo'ldi, chunki bu yilda, "Innovatsion targ'ibotchi", "Ta'lim iftixori" va "MDH eng yaxshi talabasi" ko'krak nishonlarini oldi.

50 dan ortiq maqola, ilmiy maqola, she'rlari, hikoyalari mahalliy va xorijiy gazeta, jurnallar va konferensiyalarda nashr etildi. 30 dan ortiq antologiyaga bergan ijodiy ishlari Germaniya, Rossiya, Amerika, Turkiya davlatida va o'zimizning yurtimizda o'zbek tili, ingliz tili, turk tillirda nashr etildi. 15 dan ortiq antologiya va kitoblar loyihasi asosida va muharrirligida nashrdan chiqdi. Bir qancha tanlovlar asoschisi.

100 dan ortiq diplom, sertifikat, faxriy yorliq, tashakkurnomalar egasi bo'ldi.

QDUda o'tkazilgan "Onam suygan taomlar" onlayn ko'rik tanlovida faxrli 1-o'rin olib, 1-o'rinli diplom, "Eng chaqqon qiz" faxriy yorlig'i, esdalik sovg'alarni Universitetning rektori tomonidan tantanali ravishda taqdim etildi.

"Biz zo'ravonlikka qarshimiz" shiori ostidagi insholar tanlovida 2-o'rin oldi.

2023-yil 31-dekabr kuni BMTning SPSC elchisi sifatida maxsus nishon va sertifikat bilan taqdirlandi.

"YUKSALISH SARI—BARCHA UCHUN" loyihasi asoschisi.  
"TALABA—YOSHLAR IJODIYOTI ANTOLOGIYASI" loyihasi asisida tashkillashtirilgan.

## **I. She'riyat olami**

### **SAHARLAB**

Haqdan izn so'rab,  
Bismillohdan boshladik,  
Afsonalar olisdan,  
Meros, ulug' yoshladik.

Omad deb yaratiqqa,  
Qadamni tashladik.  
Bir nazmni bitmoqqa,  
Qalamni tarashladik.

Ijod sehri bor ekan,  
Qalam unga yor ekan.  
Ilhom bilan uyg'onib,  
Yozishga dil kor ekan.

Olam-olam mo'jiza,  
Orzuga berilamiz  
Qog'ozga yozilsa,  
Dostonlar bitamiz.

Hayratlar shaydosi,  
Bo'lmasin hech adosi.  
Baxt yasaylik indallosi,  
Qalamningdir fidosi.

Siyoh ketar illosi,  
Ko'rinar so'zlar jilosi.  
Maftunkor durlardan-da  
Boyroqdir imlosi.

Buvinning afsonasin  
Har bir so'z, o'gitlarin,  
Tumordayin taqvoldim,  
Mag'zi, ma'no uqvoldim.

Zuhra tong saharlab,  
Supurarmish ko'chani,  
Samolarga termilib,  
Aytar har niyatini.

“Qaniydi yulduzday,  
Tomosha qilsam yerni,  
Yashirsam kunduzday,  
Barcha sirli mehrni.

Ko'rsatib tunlari yo'l,  
Manziliga yetkzamsam,  
Qilmay yo'lini mo'l,  
Qisqartirib o'tkzamsam.

Sheriklarim ort qolib,  
Saharni kutib olsam,  
Kunduzda yo'qolib,  
Oromimni olvolsam.

Kerakmanda har tunda,  
Mo'ljallini olvolsam,  
Yulduzlardayin unda,  
Osmonlarda bo'lvolsam”.



Yer yuzin tozalagan,  
Yuzi yorug' deydilar,  
Saharlab orzulagan,  
Ijobatlig' deydilar.

Orzulari ro'yobida,  
Uchdi parvozi o'zga,  
Zuhra aylandi shunda,  
Osmonda bir yulduzga.

Tundan sahargacha  
Turadi xoslanib,  
Borsin manzargacha  
Deya doim rostlanib.

Nasihat qizlarchun,  
Erta sahar turing,  
Ollohdan so'rab,  
Yer yuzin supuring.

Duo oling yerdan,  
Qolmang savoblardan.  
Yaxshilik birdan  
Kelar javoblardan.

Niyatni qiling yaxshi,  
Ro'yobini ko'rasiz.  
Bulardir dil naqshi,  
Quvonchlarga to'lasiz.

## **BUYUK JADIDLAR AVLODLARIMIZ**

Yurtin kelajagin o'ylab,  
Yangi maktablar ochgan.  
Ta'limni rivojlantiray deb,  
Darsliklar, risolalar bitgan  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Savodli, o'qimishli bo'lsin deb,  
Dunyoqarashi keng bo'lsin deb  
Matbuotlar ochgan  
Hammani ogohlikka chaqirgan,  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Yangi janrlarni qo'llagan,  
Roman, drama, ocherk, feleton  
Bulardan foydalanib  
Insonlar hayot tarzini yoritgan.  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Nutqimizni boyitishni istab,  
Zamonga hamnafaslik bilan  
Ko'p til bilishimizni xohlagan,  
Xalqimiz manfaatini ko'zlagan.  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Xalq kuychisidir CHO'lpon  
Mashhur bo'lgan har on  
Erkni tarannum etgan  
"Go'zal" she'rin yozgan  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Qodiriyning romanlarini,  
Sevib o'qilar doim  
O'tkan kun, Mehrobdan chayonlarini  
Unda milliylik ufurgan  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Realizm "Uloq"ga singigan,  
Uloqning xavf-xatarini,  
Unga havasmandlarini  
Ko'z oldimizga keltirgan

Jadidchilar izdoshlarimiz.  
Qarz olish qoralangan,  
Ko'rpangga qarab, oyoq uzat,-deb  
"Baxtsiz kuyov"ni bitgan  
Qodiriy barchaga o'rnak keltirgan  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Hamza Hakimzoda Niyoziy  
Nomlari qoldi abadiy  
Maktab she'rin bitib,  
Muqaddas maskanligin uqtirgan  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Barchani o'qishga chorlagan,  
"O'qi", "Ilm ista" she'rlari  
Shunchaki yozilmagan,  
Kelajak yoshlardaligin bilgan  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Boy ila xizmatchida  
Gulnor hayotin ko'ring  
Yo'lchining shijoatin  
Uning pok muhabbatida  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Gaspirali, Behbudiylar  
Jadidlar otasidirlar,  
Gazeta va jurnallar  
Matbuotchisi sanalغانlar  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

Tarbiya, axloq qoidalarin  
Misol keltirgan Oila asarida,  
Ona tilimiz grammatikasin  
"Sarf va nahv"ida olimimiz Fitrat-da  
Jadidchilar izdoshlarimiz.

## **YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!**

Yoshlarga imkonlar yaratib,  
Har sohada jasoratin sinagan  
Shoir-u ijodkorlarning ijodin yashnatib  
Qalamkashligin munosib taqdirlagan  
Yangi hayot uchun,  
yangi O'zbekiston uchun!

Buyuk avlod vakillarimiz deya  
Bizga Ibn Sinoning tibbiyot yo'lin  
Beruniy hadisi shariflarin  
Al Farg'oniy algoritmin  
Navoiy mo'jizaviy ijodiyotin  
Bizga oynak qilib tuta olgan  
Aql va kuch-qudratda tengsizmiz deya  
Amir Temurga ishora qilgan  
Yangi hayot uchun,  
yangi O'zbekiston uchun!

IT sohasini rivojlantirib  
Ish o'rinlariga safarbar etgan,  
Fikr erkinligin berib  
Yangi g'oyalarni topishni o'ylatgan  
Yangi hayot uchun,  
yangi O'zbekiston uchun!

Ilm olishni kengaytirib,  
Zamonaviy ta'limni rivojlantirgan.  
Yoshlarning huquqin kuchaytirib  
Yangi renessans davrin boshlattirgan  
Yangi hayot uchun,  
yangi O'zbekiston uchun!

Yurtimiz rivoji uchun  
Qo'lni-qo'lga beraylik  
Chet ellarga faqat  
Sayohat qilishga chiqaylik!  
Yangi hayot uchun,  
yangi O'zbekistonda!

15-iyul. 2023.



## 14-YANVAR “VATAN HIMOYACHILAR” KUNI BILAN

Yurtim tinchligin o‘ylagan,  
Vatan ravnag‘in ko‘zlagan,  
Xalq xotirjamin saqlagan,  
Yurt posbonlari kuni bilan!

Bilaklari kuchga to‘lgan,  
Barcha burch unda bo‘lgan,  
Jasoratiga tahsin o‘qilgan,  
Harbiy xizmatchilar kuni bilan!

Shu diyor nomin sharaf bilgan,  
Tunu kun uxlamay qo‘riqlagan,  
Bayram kunlari orom bilmagan,  
Vatanparvarlar kuni bilan!

Qadamlari o‘t chaqnatgan  
Mardlik qoniga singib ketgan,  
Afsonasi dunyoni zir titratgan,  
O‘zbek o‘g‘lonlar kuni bilan!

Kiritmay deb vatanimga tikan  
Shu tuproq uchun jon tikkan,  
Hamda ko‘ksini qalqon qilgan,  
Harbiy og‘alarimiz kuni bilan!

## **UMRIMIZ GULI, QUYOSHISAN AYOL**

Ayol, umrimiz gulisan,  
Go'zalliging birla olam burkangan.  
Umrimiz quyoshisan,  
Mehring ila qalbimizga nur singan.

Ona, umryo'ldoshsan  
Farishtalar siymosi jam bo'lgan.  
Tinglaguvchi dilkashsan  
Barchaga hamsuhbat bo'la olgan.

Hayotimizga ma'nodirsan  
Intilishimiz uchun zamin yaratgan.  
Xush navodirsan  
Tunlari uxlamay allalar aytgan.

Beqiyos zotsan  
Farzandlaring ko'kka yuksaluvchi  
Sirli xilqatsan  
Yuragingda olam mujassam bo'luvchi

Shijoat egasisan  
Har soha ila sinalguvchi  
Sabr-qanoatlisan  
Bardoshingga tahsinlar yog'ilguvchi

Munis, dilbarligingga hamma lol,  
Umrimiz guli, quyoshi—ayol.

## JANNATMONAND YURT

Butun olamni bir qilsangiz ham  
Yetmaydi Vatan zarra tuprog'iga.  
Gar izlasak xush ta'm  
O'xshamaydi ona taomiga.

Jannatmonand bu yurt, olam,  
Nima yetsin qovun, tarvuziga.  
Yoshlaridir ilmga chanqoq har dam  
Izdoshlardir Beruniy, Ibn Sinolariga.

Insoniylik afzaldir keltirsak kalom  
Ulug'larni hurmatlab, tilimiz shaydir salomga  
Mehrimiz, muhabbatimiz, yo egam  
Yuzimiz quyoshday porlab tursin ilmga

Nargis yozmoqqa oldimi qalam,  
Cho'mib hayollar xiromiga  
Go'zallik hamroh bo'lsin deya  
Termilib yurt jamoliga,

2021.

## O'ZBEK TILIM

So'ylayin, sen bilan but iymonim,  
Sen bilandir qadrim, zabonim,  
Tarixning zar varog'in sahifalab,  
Qanday sehring borligin izlagonim

O'zbek tilim, Navoiyni maftun etib  
Nafosating ila asarlarin bezagan tilim  
Har bir so'zing ko'nglin nurafshon etib,  
Temur dunyoni zir titratgan, tilim

Jonim payvasta, ruhim senga jo  
Jodumisan ayt, meni asir aylading, aro  
Havasim oshirib, ilhomim uyg'otib  
Shunchalik bebaho navomisan, navo

Gar seni olmos kabi ko'rar bo'lsam  
Ser jilosan, ser qirra qiyos.  
Gar dengizdagi dur-gavhar ko'rsam  
Shodaga terilgandek, sen beqiyos

Ummonmisan, bir tomching ila  
Olam-olam ma'no aks etguvchi.  
Yo humomisan, baland parvozing ila  
Qalamkashlar boshi uzra qo'nguvchi

Nargis tasvirlolmay ovora  
Sehring bilolmay dili pora  
Zohir ayla o'zbek tilim  
Jozibangni qil oshkora.

19.10.2021

### **YOSHLAR — KELAJAK POYDEVORI**

Kelajak yoshlarning qo'lida,  
Ularning harakat yo'lida.  
Omadlar har o'ng-u so'lida,  
Yoshlar — kelajak poydevori.

Rahnamosi davat rahbari,  
Ularga imtiyozning bari.  
Olg'a Yangi renessans sari.  
Yoshlar — kelajak poydevori.

Ulardadir g'ayrat, shijoat,  
Kattalarga qilar itoat,  
Yangi g'oyalar ko'p nihoyat.  
Yoshlar — kelajak poydevori.

ITlarni o'rganib, sinalgan,  
Olg'a yurish uchun yo'nalgan,  
Ushbu she'r ularga atalgan.  
Yoshlar — kelajak poydevori.

Zamonaga hamnafas bo'lgan,  
Kuch-quvvatga bilagi to'lgan.  
Dunyoni lol qoldira olgan,  
Yoshlar — kelajak poydevori.

Aql-zehni ularniki o'tkir,  
Ijodkorona she'rlar o'qir,  
Kitoblar uchun fikrlar to'qir.  
Yoshlar — kelajak poydevori.

Buyuklardan ham ibrat olar,  
Til o'rganib, sertifikat olar.  
Ustida ishlashga otlanar,  
Yoshlar — kelajak poydevori.

Ulug' yoshlarga quloq solar,  
Ularni hurmatlab, e'zozlar  
Har bir so'zlarin o'git bilar  
Yoshlar — kelajak poydevori.

Nargis ularga tilar omad,  
Ishlariga rivoj, daromad,  
Yurtimizning g'ururi-ori,  
Yoshlar — kelajak poydevori.

## HAYOT DAVOM ETAVERADI

Yiqilsang gar, turasan albat,  
Mehnat qilsang ko'rasan rohat.  
Sabrli bo'lgin, ko'rsang-da zahmat,  
Hayot davom etaveradi.

Quruq non yeb, suvni ichsang-da,  
To'kin-sochin yashasang-da.  
Boy-u kambag'al bo'lsang-da,  
Hayot davom etaveradi.

Asablaring taranglashsa-da,  
Yashamoqlik aranglashsa-da,  
Daraxtlari zaranglashsa-da,  
Hayot davom etaveradi.

Xursand bo'lib, baxtga to'lsang-da,  
Shodon, quvnoqlikda bo'lsang-da.  
Bu dunyodan o'tib, o'lsang-da,  
Hayot davom etaveradi.

Noming qolsin abadiy  
Yaxshilik qil doimiy,  
Umrning o'zidir foniy,  
Hayot davom etaveradi.

Nargis anglab yetdi-da buni,  
Ishdan kimdir ketgani kuni.  
O'miga boshqasi keladi,  
Hayot davom etaveradi.

Ijodni tanla, merosing bo'lar,  
Farzandingdek jiloying bo'lar.  
Tarixda zar varag'ing bo'lar,  
Hayot davom etaveradi.



## II. Xotiralar olami

### UMSONANING KUNDALIGI: Bozordagi “kuzirlar”

Xo‘jayinim Xitoyga malaka oshirish uchun ketishadigan payti u yerdan kelishguncha ota-onamning oldida bo‘lib turishga kelishdik. Men va farzandlarimni, minib yurgan ulovlarini ota-onamning uylarida qoldirib, 6 oyga Xitoyga samo lochinida uchib ketishdi. Ular ketishgandan keyin qandaydir chilla saqlab qoldim, bitta sog‘liqqa oid kitobni o‘qidim, o‘sha kitob bo‘yicha mashqlar bajarardim, ammo ko‘zim yig‘idan tiyilmasdi.

Dadam bu holatimni ko‘rib:

—Qizim, onang bilan savdoga chiqasan, bunday holatda kasal bo‘lib qolasan-deyishdi. Men: “Xo‘p”-deya bozorga chiqa boshladim. Yonimizdagi savdogar sheriklar bilan tanishdim.

Ulardan biri 60 yoshlar atrofidagi xola o‘g‘li bilan birga har kuni erkaklar futbolkasini sotib savdo qiladi va chakana savdo tugagandan keyin boshqa Qo‘yliq tomondagi “Kompas” gipermarketining ro‘parasidagi yoymada savdo qilishini, u yerda ham savdo yaxshi bo‘lishini aytib berdi. Asli Andijonlik bu kampir o‘g‘lini savdoga o‘rgatish maqsadida bu yerlarga kelgan, o‘g‘lining savdo bo‘yicha hech qanday tajribasi yo‘qligini ko‘rib, Andijonlik gapga chechan savdoga chaqqon Mukarram opaga joyini 100\$ dollarga ijaraga berdi va o‘zi aytgan joyda 1 muddat savdo qilib, o‘zining viloyatiga qaytib ketdi.

Bir kuni onamning oyoqlari og‘rib savdoga chiqa olmay qolishdi, shifokorga dorilarni yozdirib, uyda muolajani boshladik, men osma ulab, muolaja qilib turdim, onamga savdoga chiqmay dam olishlarini, o‘rnilariga o‘zim savdo qilishimni aytdim va bozordagi joylariga borib savdo qildim. U bozor sahargi soat 4-5 lar oralig‘ida

ochilar, ulgurji savdo uzog'i bilan ertalabki soat 8 largacha bo'lardi. Onamning sotiladigan narsalari asosan import Turkiya, Pekin bolalar jensi kiyim, formalardan iborat. Ko'zimga onamning sotadigan narsalari kamga o'xshadi, yonimdagi sherikdan har kuni 500 000 so'm olib mahsulot bilan to'ldirib, ularni sotib, pulni olgan kunimning o'zidayoq to'lardim. Ortgan pulga mahsulot olib uyga qaytardim.

Bir kuni qo'shni ayol:" Onangiz menga ham savdo o'rgatsinlar, xo'jayinim so'rab ko'rishimni tayinladi"- deb chiqdi, men esa onam betobliklarini, o'rnilariga o'zim savdoga olib chiqishimni aytdim.

Ertasiga sheriklarimdan nasiyaga kiyim-kechaklar oldim, o'zimga ham, sherigimga ham. Xola aytgan Qo'yliqdagi joyga Mahliyo opani olib bordim. Savdomiz yaxshi bo'ldi, ayniqsa jensi kiyim-kechaklar savdosi. Bizdan narxni va sifatini ko'rib ketgan mijozlar yana qaytib kelib, sotib olishardi.

Keyingi kuni yana birga soat 11 larda Qo'yliq tomondagi yoymaga chiqdik, biz mahsulotlarimizni yoydik, o'zim saharda sotadigan jensi mahsulotlarimni yoydim, savdomiz yaxshi bo'ladigan payti bir ayol kelib, menga jensi kiyimlarni sotmasligimni tayinladi, har xil do'q- po'pisalar qilib ketdi.

Keyin bilsam jensi sotuvchi Go'zal ismli ekan, u ayolga mening jensi kiyimlar sotishim yoqmasdi, u mengacha bironta sotuvchini jensi kiyimlar sotishiga yo'l qo'ymasdi, o'zini "jensi sotuvchi kuzir" deb hisoblar va menga:" Jensi kiyim umuman sotma, men bu kiyimlar kuziriman"- deb dag'-dag'a qilishidan buni angladim.

Uning gaplariga e'tibor bermadim, keyin bir odam keldi, men:

—Assalomu alaykum!

U: —Va alaykum assalom! Bu yerda yangisizlar shekilli, tezda bu narsalaringizni yig'ishtiringlar, bo'lmasa barcha narsalaringizni kameraga olib ketiladi!- dedi.

— Xo'p bo'ladi!-deb yig'ishtirib uyga qaytdik.

Ertasiga sherigim bilan tushdagi 12 larda yana keldik, iyun oylari, havo juda ham issiq, quyosh tik chiqqan payti, yo'lakka katta mato solib, ustiga sotiladigan kiyim-kechaklarni yoyib, savdo qilishga tushdik, uydan unchalik ovqatlanmay chiqqanim uchun suv olishga bordim, suv olib, suvchiga suvni ochib berishini so'raganimni bilaman, xushimdan ketib orqa tomonimda turgan stulga sekin o'tirib, boshimni stol ustga qo'yganimni bilaman xolos, butun tanam hech nimani sezmas, yuragimni urushini ham his qilmasdim, faqat miyam ishlardi xolos, darrov ota-onam, farzandlarim yodimga tushdi: "Man o'lsam farzandlarim nima qiladi? Xo'jayinim-ku darrov boshqaga uylanib ketadi? Farzandlarim qiynaladi, ota-onam farzand dog'i ado qiladi" degan xayol o'tdi, keyin ko'zimni asta ochdim, lekin hech nima ko'rmayotganidan, hech nima ko'ra olmasligim mumkinligini o'ylab qo'rqib ketdim", atrofimda odamning Sahargi bozordan keyin bu yerga tushdan keyin kelib sherigimning sotiladigan narsalarini sotib berdim va o'zimning mahsulotlarimni ham sota boshladim, soat kechki 10 larga uyga qaytib borardim. Doimo o'zbek grammatikasi kitobchasini yonimda olvolardim, savdo sust bo'lganida o'qirdim. Uyga borib Nargiza Erkaboyevaning kitobini o'qib, ko'z yugurtirib chiqardim.

Yig'ilgan pullarimga bolalarim va o'zimga kiyim olib (chunki fevral oxirog'ida kelganim uchun qishki va bahorgi kiyimlarni olib kelgan edim), bog'chasi, sportiga to'lardim, ortganiga yana jensi mahsulotlarini olardim.

Shu zayildagi kunlarda ayollardan yana biri ayollar kiyimini sotmasligim bo'yicha kelib urush qilmoqchi bo'ldi, unga bu kiyimlarimni sotishga yordamlashishini taklif qildim, ko'ndi, unga sotishga beraman, ustiga qo'yib sotib beradigan bo'ldi.

Keyinchalik bu yerda savdo qilishimga hech kim to'sqinlik qilmadi, soliqchilardan tashqari albatta, ularning kelmas paytini bilib olib bo'lgandim.

Kim urush qilmoqchi bo'lsa meni yonimni oluvchi opaxonlarim va ukaxonlarim paydo bo'lishdi.

Onam tuzalغانlaridan keyin bu yerlarga kelmadim, boshqa maxsus joyga bozor ko'chganligini eshitdim.

Bozorda kuzirlar borligini birinchi marta Qo'yliq bozoriga kelganimda bildim.

Onam bozorga qaytishganda sotiladigan narsalarning ko'pligini ko'rib juda xursand bo'lishdi. Erim kelgunlaricha onamga yordamlashib turdim.

Bitta xulosaga keldim: "Erim kelsa, dastiga bersin, umuman savdoga chiqmayman, Universitetga o'qishga kirib o'qiyman" .

2019-yilgi voqealar asosida.

17.10.2022

## UMSONANING KUNDALIGI: Mo'jizaviy chilla

Kechki ovqatdan keyin xo'jaynim bilan suhbatlashib o'tirardik, xo'jaynim: "Men Xitoyga o'qishga ketyapman"

Men: "Rostdanmi, qancha kunga?"

—6 oyga

—Voy bu, borishni juda xohlayapsizmi?

—Ha, judayam

—Mayli boring. Man borishni orzu qilgan joylarni bir ko'rib keling!

—Yaxshi!

—Qachon ketasiz?

—Fevral 18 lariga.

—Oz qolibdiku! Man bolalarim bilan sizni kutib ota-onamning oldida bo'laman.

—Yaxshi. Kiyimlarni tayyorla, ketishga tayyorgarlik ko'rib qo'y.

—Xo'p.

Shundan so'ng ketishga kiyimlarni tayyorlab qo'ydim. 3 kundan keyin yo'lga tushdik.

Ota-onamlar oldiga bordik, olam-olam quvonch bilan kutib olishdi:

Biz: — Assalomu alaykum!

—Va alaykum assalom! Sizlarni ham ko'rar kun bor ekanku, qiynalmay yetib kevdilaringizmi?

Xo'jaynim: -Men Xitoyga kechki tomon ketadigan bo'ldim, qaytgunimcha sizlar bilan turadi.

Onam:

— Buncha yaxshi, nevaralarim, qizimning mazza qilib diydoriga to'yib olar ekanmanda, bularni qarang bir-biridan shirin. Siz bemalol, xavotir olmasdan borib kelavering, o'zimiz bularga qaraymiz.

— Xo'p.

Ovqatlanib,choy ichib suhbatlashib o'tirgunimizcha kech bo'ldi.

Ketish paytlari menga:

— Qadrimni bilasan

Qaynonamning xo'jaynimga: "Olti oy sensiz yashay olmaydi", -degan gaplari yodimga tushib;

— Siz ham, siz bir o'zingiz ketyapsiz,biz 5 kishi bo'lib qolyapmiz.

— Keyin tayyoragoh tomon yo'l olib ketishdi.

Erimning bir og'iz gaplari qalbimda shu darajada alam alangasini yoqdiki, bu alamni yo'qotish uchun bitta kitobni o'qishni boshladim, u kitobni shu darajada berilib o'qidimki, unda hayolot olamida yomg'ir yog'ishini o'qiganimda, rostdan ham ko'chada yomg'ir yog'di, chaqmoq chaqan joyini o'qiganimda, o'ngimda tashqarida chaqmoq chaqdi, harflar sakrashi haqida o'qiganimda kitobdagi harflar birinma-ketin shu darajada sakradiki, hayratimni yashira olmadim. Tinmay ko'zimdan yosh quyilib keldi, chilla saqlanish mavzusini o'qiganimda, chilla saqlashga kirib qolganimni angladim. Xonamdan chiqib, oshxona tomon yo'l oldim, oynakdan ko'chani tomosho qildim, onam yonim keldilar, hayratimni yashira olmay onamga: "Ona qarang kitobda nimani o'qisam, tabiat ham

shunga moslanyapti, ham-ohang bo'lyapti, qarang kitobda chaqmoq berilgandi, tashqarida chaqmoq chaqyapti," Harflar sakraydi"-degandi sakrayapti"-dedim.

— Onam: "Mo'jizaku, chin yurakdan, ixlos bilan o'qiyapsan ekanda"

—"Ha, onajonim",-deya onamga xayrli tun tilab xonamga kirib uxlab qolibman.

Ertalab turib katta farzandimni maktabga olib borib, direktor o'rinbosari bilan gaplashib, vaqtincha o'qib turishiga ko'ndirdim. O'g'limni sinf rahbari bilan tanishtirib, sinf xonasida olib qolishdi.

Maktabi hal bo'lganidan, endi darslaridan qolib ketmasligidan xursand bo'lib uyga qaytdim.

Kitobni o'qishni davom ettirdim. Unda inson mukammal yaratilgan hilqatliligi haqida yozilgan ma'lumotlar o'zimni anglashga yordam berdi. Inson o'zini sevsagina, ollohni sevishi va boshqalarni seva olishini, o'ziga qattiq ishonsagina, boshqalarga ishonishini tushunib yetdim. Biz insonlar miyamizning kerakli qisminigina ishlatishimiz mumkinligini o'qib bildim. Unda turli hikoyalar berilishi yanada chuqurroq mulohaza qilishga undadi.

Masalan: Betxovinning ko'zi ojiz bo'lishi, u bunga parvo qilmay kuylar bastalagani, alal oqibat ko'zi ochilib bemalol ko'rish qobiliyati tiklanganligi;

Bir ayolga shifokorlar tuzalmas kasallikka uchrab, sanoqli umri qolganini aytishganda, juda ham tushkunlikka tushib, ko'ziga butun dunyo qorong'u bo'lib ketganligi, shu qolgan kunlarni qanday o'tkazishni o'ylagan payti unga shifoxonadan qo'ng'iroq bo'ladi, undan kechirim so'rab, boshqaning tashxisi bilan adashtirib yuborishganini aytishadi. Bu adashmovchilikni eshitgan ayol shu darajada xursand bo'ladiki...

Shu holatini o'qir ekanman beixtiyor o'zim ich-ichimdan suyundim, vujudimni xotirjamlik egalladi. O'zimning boshimdan o'tgan o'tmishimdagi voqeya yodimga tushdi.

8-sinf edim oyog'im birdaniga oqsoqlay boshladi, boshida e'tibor bermadim, boshqalar "Oyog'ingga nima bo'ldi?"-degani e'tiborimni tortdi. Ota-onam ham oqsab yurishimni payqashdi. Dadamga kimdir Farg'ona shahrida kuchli professor rus er-xotin borligini aytib, yashash manzilini berishdi.

Uyini bemalol topib bordik, 4 qavatli uyning xonadonlardan birida yashashar ekan. Xonadoniga kirib bordik, dadam bilan onam ular bilan gaplashdilar, ayoli meni tekshirib ko'radigan bo'ldi, yumshoq uzun kursiga o'tkazdi, tizzamga kichik maxsus tibbiyot bolg'achasi bilan urib ko'rganida oyog'imning tizzasining pasti qismi ko'tarilib ketib, yana o'z xoliga qaytdi, keyin uchi uchliroq, uzun, orqasida ushlashga osonroq dastasi bor narsanining uchini oyog'imning tagiga, tovonimga, barmoqlarimga suqib, ruschlab "Sezyapsanmi?"-deb so'radi. Men hech nimani his qilmaganimni aytdim.

Ular o'zlarining tilida qandaydir "sh" harfi ketadigan tashxis qo'yib:

"Qizingizni nogironlikka yozdirib qo'yavering, bora-bora yura olmaydigan bo'lib qoladi, unga nogironlik aravachasini ham tayyorlab qo'yaveringlar, keyinchalik kerak bo'ladi"-deb aytishdi.

Dadam: — Buni davolasa bo'lmaydi-mi?

—Yo'q.

Dadam ularga rahmat aytishdi va biz orqaga qaytdik.

Onam buni eshitib qattiq siqilib, kechalari ko'zlaridan uyqu qochib, kirtayib, o'zlari esa darrov ozib ketishdi.



Dadamdan: Dada, endi nogiron bo'lib qolamanmi? "-deb so'raganimda, dadam:"Hech qachon nogiron bo'lmaysan, bizning avlodda nogiron bo'lmagan, sen bu haqida o'ylama"-deyishdi.

Dadam ularga ishonmadilar, onam ikkalamizni olib Toshkentga jo'nadilar. Bir prokuror og'aynilarining uyiga tushdik. Xonadonlari 4 qavatlik uyning 1-qavatida ekanligi uchun oldiga yana bitta xona qurilib, shu yerdan kiriladigan eshik o'rnatilgan va atrofi o'ralgandi. Shu eshikdan xonadon egasinikiga kirdik. Mezbon xolam chevar va pazanda ekanlar. Xola bizga:

— Turmushga chiqqunimcha umuman ovqat qilishni bilmasdim, buni turmush o'rtog'imga aytganman, to'yimiz bo'lganidan keyin turmush o'rtog'im o'zlari bilan Toshkentga kvartiraga olib kelidilar, ustimdan doimo quliplab ketardilar, nima aytib yuborsam kelishda olib kelishardi, pishiriq kitob bo'yicha ovqatlarni tayyorlardim, gramlab ko'rsatilgan bo'lsa gramlab solardim, shunday qilib ovqat qilishni o'rganganman, hozir bunday o'lchab o'tirmayman, mana endi-endi kurslarga kirib o'qishimga ruhsat berishyapti, hozirgi kunda zamonaviy elita pardalarni tikishni o'rganyapman, shu ko'rib turgan pardalarni o'zim tikdim".

Men ulardan parda qanday tikilishini so'ragandim, parda qanday bichib tikish to'g'risidagi daftarlarini olib chiqib manga berdilar. Har bir pardani tikilishi, andozalarini ko'rib chiqdim, bir-ikkitasining bichimini xotiramga muhrlab oldim. Yonimizga men tengi qizi keldi, u qiz bilan gaplashib o'tirdim, menga boshqa tengqurlarim sizlab murojaat qilishlariga o'rgangan ekanmam, bu qizning sensirab muomala qilishi qandaydir yoqimsiz tuyuldi. Onamdan sekingina qachon ketishimizni so'radim. Keyin bizni dadamning shu o'rtoqlari Toshkentdagi shifoxonalarning biriga jo'natdilar. Shifoxonaga bordik, maydon o'lcham bo'yicha juda katta, juda ko'p bo'limlari bor ekan. Dadam shifokor bilan suhbatlashib, bizni u yerning xonalarning biriga joylab, ortga qaytdilar. U xonaga kirganimizda 2 ta bemor

xolalar yotishganiga ko‘zim tushdi, ular bilan salomlashib, tanishib oldik, so‘ngra bitta shifokor amaki kelib, tizzamga maxsus bolg‘acha bilan urib tekshirdi, keyin yo‘lak bo‘ylab yurdirib ko‘rdi, yo‘laklarda yurishimni ko‘rib:

—Og‘irroq nimadir ko‘targanmidi?

—Ha, biz bilan so‘rini ko‘tarishga yordam berib surishvorgandi.

— Endi umuman 2 kilodan ortiq yuk, narsa ko‘tarmasin.

— Xo‘p, ko‘tartirmaymiz.

— Mana yuryaptiku, xudo xohlasa hech nima ko‘rmaganday bemalol yuradi, xavotirlanishga xojat yo‘q, qizingizni davolaymiz, uning umurtqasida grija ya'ni disk churrasi bor, shuning hisobiga yurishga qiynalyapti, bu kasallik sekin astalik bilan tuzaladi, dorilarini olib bersalaringiz bo‘ldi" -deb onamga dorilar ro‘yxatini yozib berishdi.

—Rahmat,sizga.

— Omon bo‘linglar!-deya boshqa bemorlarni tekshirishga ketdi.

Onam bilan birga dorilarni olib xonaga qaytdik.

Kechga Barno xolam o‘g‘ilchasi bilan kelib bizni kechki sayrga olib ketishdi.

Shunday chiroyli joyga olib borishdiki, atrof ham kunduzgiday yorug‘, ustun shaklida usti fonarga o‘xshash, ichiga chiroqlar o‘rnatilgan, qo‘shimcha turli tuman chiroqlar bilan yoritilgandi. Bizni jurnalist Xulkar xolam va gimnaziyada birga o‘qiydigan sinfdosh dugonamning onasi odobnoma ustozim bizni kutib turishgan ekanlar. Ular bilan ovqatlanib, atrofni aylanishni boshladik, onam ular bilan suhbat qurib borishardi, men esa yo‘llarga terilgan sopoldan yasalgan bejirim milliy haykalchalarni, turli-tuman eski tarixiy va yangi, o‘zimizning va boshqa davlatlarning tangalarini, ko‘rgazma qilib

ilingan narsalar, taqinchoqlarni tomosho qilib borardim va uchala tomoniga ham, oldiga ham katta kichik yumshoq o'yinchoqlar terilgan joyga borib suratga tushdik va rasmlar tayyor bo'lgunicha o'zmoz aylanib, tayyor bo'lgan rasmlarni olib qaytdik.

Ertalabdan kechgacha vaqti belgilangan holda turli dorilar ichib, osma ukollar oldim, kechqurun bizdan xabar olgani jurnalist xolam kelishdi, ulardan men bilan tengqur qizlari To'maris juda ham chirolu qilib gulkaramni tuxumga ilab, kartoshkani ham qizartirib qovurib dimlab pishirilgan taomni berib yuboribdi. Birga ovqatlanish jarayonida Xulkar xolam ham grija ya'ni disk churrasi bo'lganliklarida, dadamga tel qilishibdi, dadam:

— Bu yerga kelavering opa, men sizni grijani davolaydigan sihatgohiga jo'nataman, hech nima ko'rmaganday bo'lib ketasiz"- deyishibdi.

Shunday qilib dadam ko'maklari bilan tuzalganliklari aytib berishdi. Uylariga ertaga kelib olib ketishlarini aytib mehmonga chaqirishdi.

Xulkar xolamlarnikiga bordik, ko'p qavatli uylaning birida yashar ekanlar, xonadonlari juda ham shinam, fayzli ekan, qizlari To'maris va kichik o'g'illari Temur bilan tanishtirishdi. Qizlarini siymosida haqiqiy afsonaviy To'marisni ko'rganday bo'ldim, muomalasi shu darajada chiroyliki, pazandaligiga besh ketdim. Suhbat chog'ida xolamni Farg'onalik shoir A'zam O'ktamning ayoli ekanliklarini bildim.

Ular bilan xayirlashib, shifonaxonaga qaytdik.

Ertasiga buvim kelishdilar (dadam buvimlarnikiga borganlarida meni sog'lig'im bo'yicha xabarni aytishganlarida, uyda o'tira olmay o'sha kuning o'zidayoq yo'lga tushishibdi). Onam uyimizga qaytishdi, buvim menga qaraydigan bo'lishdi. Buvim har xil hikoyatlar, ertaklar, boshlaridan o'tgan voqealarni aytib berishardilar,

men esa qiziqib tinglab o'tirardim. Kunduzgi muolajadan keyin buvim bilan birga shifoxona tashqarisiga aylanishiga chiqdik, do'konlarni aylandik, atir do'koniga kirib buvimga idishi juda chiroyli, hidi atirgulning mayin iforini taratuvchi atir oldik(bu atirni ehtiyotlab 3 yil ishlatishdi, nevaram tanlashvorgan deb). Buvim bilan vaqt qanday o'tganini bilmay ham qoldim.Uyga qaytdik. Buvim biznikida ikki-uch kun turib, uylariga qaytib ketishdi. Dadam onam ikkovimizni Rapqon sihatgohiga olib borishdi. U yerning boshlig'i dadamning eng yaqin og'aynisi, rafiqasi esa onamning dugonasi, ular bizni sihatgoh mehmonxonasiga joylashdi. Mexmonxonada barcha sharoitlar muhayyo bo'lib, xabar oluvchi mehmonlarni kutish zamonaviy jihozlangan xonasi, 2 ta yotoqxona, yoqtirgan ovqatlar qilish uchun oshxona, xojatxona-yu yuvinishxonalarini o'z ichiga olgan. Xamshiralar parafinni olib kelib onam va mening oyoqlarimizga qo'yib, ovqatlarni ham mehmonxonamizga eltib berishdi, ba'zan o'zimiz qizil lavlagidan vnigrit salatini tayyorlab yeb turdik. Suv muolajasi, massajlarni har kuni oldik va shifobaxsh suvlarini ichdik. 3-kuni qo'shiqchilar kelib, atrofga stollar tuzalib bayramlar o'tkazildi, onam bilan stol atrofida o'tirganimizda, onamning dugonasi Go'zal xola 2 ta qizi bilan bizni ko'rgani kelishdi. Ular bilan suhbatlashib o'tirdik, bayram juda qiziqarli o'tdi, yoshi katta onaxonlar mazza qilib raqsga tushishdi, Ra'no xolam(sihatgoh boshlig'i), Go'zal xolamlar ham raqsga tushishdi. Onamning xursand kayfiyatlarini ko'rib dilim yorishdi. Bayram tugadi, hamma tarqaldi, biz Go'zal opalarni kuzatib, xonamizga yo'l oldik.

Diyora opam va men uchun alohida Marina ismli ayol biriktirildi, har kuni yuzimizda tabassum bilan ruhiyatimizni davolovchi hayoliy mashg'ulotlar va jismoniy mashqlar bajarardik, har bir hujayra va har bir organimizga e'tibor qaratib, davolash seansini o'tkazardik, o'zimizdagi issiqliklarni butun tanamiz bo'ylab harakatlantirardik. O'zimizdagi o'zgarishlarni bitta daftarga yozib borardik. Shunday sianslarning birida meni kattalar zaliga olib

borishdi, zal bo'ylab umuman qiynalmay yugurdim.(ungacha yugurishga qiynaladigan bo'lib qolgandim)

Professor Norbekovni kitobini uyda mustaqil shug'ullanish uchun sotib oldik. Shu bilan mashg'ulotlar tugadi.

Ortga Beshariqqa qaytdik.

Dadam ishlarini Toshkentga ko'chirishdi, 9-sinfning 3-choragidan boshlab Chilonzorda joylashgan gimnaziyasida o'qishimni boshladim.

Chirchiqdagi disk churrasini so'rdirib yuboradigan ot yog'i, saryog' va asal qo'shilmasidan ichishga va uqalashga dorilar tayyorlovchi 90 oshgan rus xolaning oldiga bordik, u meni turnikka osiltirdi va: "Shunday har kuni osilib turishing va sekin pastga tushishing kerak, umurtqang cho'zilib ichidagi qisilib qolgan asab tomirlaring chiqib ketib umurtqang oldingi holatga qaytadi"-deya tavsiyalar berdi.

Oshxonaga kirishda eshikning teppa qismiga turnik qilib berishdi, ovqat qilgani kirganimda, va boshqa paytlari ham turnikka ma'lum muddat osilib turdim. Dadam boshimga kitob qo'ydirib, to'g'ri choziq bo'ylab yurdirishardi.

Shunday qilib oqsashimdan asar ham qolmadi.

Bu voqea zamirida ota-onamning say-harakatlari, e'toborlari, menga bo'lgan mehrlari yotadi.

Onam bilan 3 ta farzandimni bog'chaga gaplashishga yo'l oldik, har bir bog'chadan Yagona darchaga borib ro'yxatdan o'tishi kerakligini, navbat sentabrda kelishini aytishdi. Yo'lda ketayotganimizda maktabga tayyorlovchi "Почемучка" haqida e'lon berilibdi. E'lon bo'yicha bog'chaga bordik, bolalarimni shu bog'chaga gaplashdik, ertasidan boshlab bog'chaga boradigan bo'ldilar.

Uyda kitobni o'qib tezroq tugatishga harakat qildim, chunki tinmay yomog'ir yog'ishi jonga tekkandi. Hech to'xtay demasdi. Chorsu tomondagi yo'llarni suv bosishi hammasidan o'tib tushgandi. Keyin cho'l haqida, u yerda unib chiqqan gullar haqida so'z yuritilganiga keldim, yomg'irlar yog'ishi to'xtadi, juda qattiq jazirama issiq boshlanib ketdi.

Xo'jaynim ketgandan 5 kun o'tib Xitoydan ukamning telefoniga qo'ng'iroq qilishdi(mening telefonim yo'q edi). Ukam telefonni menga berib: "Pochcham sizni so'rashyapti, bemalol gaplashavering", — dedi.

Men: Assalomu alaykum!

Xo'jaynim:Va alaykum assalom,bormisizlar, bundoq tel ham qilmaysan?

— Raqamingiz ishlamaydiku?

—Imo ochvol,shundan gaplashib turamiz,o'zing, bolajonlarim yaxshimisizlar?

— Ha, rahmat hammamiz zo'rmiz,o'zingizchi?

—Bo'ladi. Bu yerning ovqatlarini umuman yeya olmayapman,xidi bor ekan, faqat banan olib yeyabman, uy ovqatlarini sog'indim.

—Keling kavatak do'lma qildim, birga yeymiz.

—Ishtahamni ochmay tur.

— Kelmasangiz ham ovqatni rasmini sizga jo'nataman

—Yaxshi,bolalarga ber gaplashay.

—Xo'p.

O'g'lim: Assalomu alaykum dada.

—Va alaykum assalom,yaxshimisan?

—Yaxshi,o'zizchi?

—Yaxshi, ukanglarga qarab yuribsanmi?

—Ha.

—Ukanglarni himoyalab yur.

—Xo'p.

Qizim: Assalomu alaykum dada!

—Va alaykum assalom, qizim,yaxshimisan?

—Ha, bog'chaga boryapman.

—Zo'rkubog'chada hech kim seni xafa qilmayaptimi?

—Yo'q, ukanglarga qarab yur.

—Xo'p.

—Singling qani?

—Manaman dada, Assalomu alaykum! sog'inib ketdim sizni (quvnoq, jarangdor ovozda)

—Iiii, va alaykum assalom! Men ham sog'indim qizim. Yaxshimisiz?

—Ha, qachon kelasiz

—Boraman, sheriging qani?

—Assalomu aleykum dada! Qachon kelasiz?

—Va alaykum assalom! Boraman o'g'lim. Yaxshimisiz?

—Zo'r, sizni sog'inib ketdim(ko'zchasidan yoshlar yumalab tushdi).

—Men ham, onangga telefonni ber.

—Xo'p.

—Alo dadasi!

—Ayasi, bollarga yaxshi qara, hammaga salom ayt, ertaga telefon qilam, yaxshi dam olinglar!

—Xo'p, rahmat, siz ham!

—Yaxshi.

Ko'p yig'laganimdan ko'z ko'rish qobiliyatim pasaygandi, tekshirtirish uchun ko'z shifokoriga uchradim, ko'zimni tekshirib: "Harflarning 2 qatorini ko'ryapsiz, bu juda yomon natija, tezroq ko'zoynak olib taqing, yo'llarda qiynalmaysiz, ko'zingizni davolashingiz kerak"-dedi.

Men:-Ko'zoynagim bor, lekin uni taqmiman, yaxshisi mashqlar orqali ko'rish qobiliyatimni tiklayman"

—Yaxshi.

Uyga qaytib kitobni o'qiy boshladim, ko'z mashiqlari, butun tana mashiqlari berilgandi, ularni har kuni bajara boshladim, ko'chaga chiqsam ham ko'zimni mashiq qildirishdan to'xtamadim, ko'rish qobiliyatim tiklana boshladi. Kitobni butunlay o'qib tugatdim. Qaytib shunchaki o'qigandim hech qanday mo'jiza yuz bermadi, chilladan qutulganimga shukur qildim.



## **“YANGI O‘ZBEKISTONNI O‘ZIMIZ, O‘Z QO‘LIMIZ BILAN BUNYOD ETAMIZ”**

Go‘zallikka boy, jannat makon, o‘zining muqaddas tarixi ega bo‘lmish vatanimiz— O‘zbekiston uchun yangiliklar kiritib, uni tubdan o‘zgartirish, butun dunyoga tanitish biz yoshlar qo‘lidadir. Chunki qancha ko‘p izlanib, o‘z ustimizda ishlar ekanmiz, bilim olish bilan cheklanib qolmay, dunyo qarashimizni boyitishimiz, o‘z fikr-mulohazalarimizga ega bo‘lishimiz, insoniylik jihatlarga ham ahamiyat berishimiz kerak. Bunyodkorlikka, o‘zimizda shu yurt rivoji va har birimiz erkin yashashimiz, xalqimiz birdamligini saqlovchi yangi g‘oyalar o‘ylab, hayotga tatbiq qilishimiz kerak.

Yurtimiz tinch ekan, doimo xotirjamlik, rivojlanish, gullab-yashnash, olg‘a siljish bo‘ladi. Tarixga nazar solsak xalqimiz tinchligini, farovonligini ko‘ra olmagan manfur kimsalar borligiga guvoh bo‘lamiz.

2000-yillarda Yurtimizda ro‘y bergan mudhish voqea haqida ayrim ma‘lumotlar keltirsam. Ekstremistik guruhlar tomonidan amalga oshirilgan ishlaridan biri bu yoshlarni yo‘ldan urib, o‘z yo‘l-yo‘rig‘iga solish uchun masjid, madrasalarga o‘rnashib olib, dinga qiziqishidan, pulga muhtojligidan, pul topish borasida qiziqishidan foydalanib, jihad qilish, hamda ular uchun shahid bo‘lishga tayyorlaganiga guvoh bo‘lamiz. Ularning g‘araz niyati hokimiyatni egallab, xalqni tutqun holda saqlab, qul qilib, o‘z yo‘rig‘iga yurdirmoqchi bo‘lgan desak xato bo‘lmaydi. Qancha-qancha insonlar hokimiyat, prokuratura hamda davlatning boshqarishga aloqador muassasalarga borib, o‘zini-o‘zini portlatgan insonlarni eshitib larzaga kelmagan inson bo‘lmasa kerak. Bu voqea juda ko‘pchilik ota-onalarning farzand dog‘ida kuyishiga, bu hodisalarni yuragi ko‘tara olmay dunyolardan o‘tishiga sababchi bo‘ldi. Bulardan biri Beshariqlik ziyoli ayol, kuchli pedagog, o‘quvchilarni ilmga

qiziqtiradigan ustoz, bu voqeadan jabr ko'rgan marhuma Muhtaram Abdukadirovna haqida yozib o'tishga qaror qildim.

Ustozim 1-maktab gimnaziyasida ingliz tilidan dars berishardi. Darsni shu qadar qiziqtirib o'tishardiki, har xil darsga aloqador o'yinlar, bayramlarda ingliz tilida chiqishlar, sahna ko'rinishlari, qo'shiqlar va raqslar bilan boyitib tashlashardi. O'ylab qarasam ustoz nutqimizni ingliz tiliga tayyorlab, bemalol bu tilda gaplasha oladigan, nutqini go'zal va ravon qilishga qaratgan ekanlar.

Bir kuni ustoz meni o'zlariga yaqin olib farzandlari qamalganini yig'lab aytib qolishdi. U payti 7-sinf edim. Ikki farzandlari masjidga borganini, bu yo'lga adashib kirib qolganini eshitib hayron qolganman. Majlisda ustozimga bunday farzandlar tarbiyalagani uchun qattiq gaplar bo'libdi. Bunday gaplardan onalar uchun dunyoda eng og'iri bo'lmasa kerak. Ustozim ko'p yashay olmadi, bu voqea, gaplarni yuragi ko'tara olmadi. Bu ikki o'g'illari oilali insonlar, qo'llarida hunarlari bor edi. Ayollari ziyoli, o'qigan bizga tarix fanidan bir-ikki marta dars ham berishgan. Ular yosh oila, ulardan bittasi alohida uyga chiqib ketgan. Onasi ziyoli, otasi qo'li gul hunarmand: mebel jihozlar yasovchi o'z kasbining ustasi edi. Bunday hol bu oilada yuz berishidan albatta ajablanmasdan iloji yo'q, kutilmagan holat ham.

Biz yoshlar bunday vaziyatlarni holatlarni oldini olish uchun miyamizda g'oyaviy bo'shliq qoldirmasligimiz, tariximizni, yaqin o'tmishda bo'lgan hodisalarga befarq qaramasligimiz, ota-onamiz yuzini yorug' qiluvchi, ularga aziyat yetkazadigan ishlardan nari bo'lishimiz kerak. Doimo olg'a intilib, ma'naviy ongimizni o'stiruvchi badiiy, ilmiy asoslangan kitoblar o'qishimiz, ulug' maqsadlar qo'yib, bu borada izlanishda bo'lishimiz kerak deb o'ylayman.

Shu tinch zaminda yashashimiz uchun poydevor bo'lgan insonlarni ham unutmashimiz kerak. Bu ulug' insonlardan biri Sobiq

SSSRdan O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishiga sababchi bo'lgan 1-yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov nomini alohida zarvaraqlarga kiritishimiz bejiz emas albatta.

Demak, biz yoshlar kelajak avlod uchun poydevor vazifasini bajaramiz. Poydevorning qanchalik mustahkam bo'lishi bizga bog'liq. Abdulla Qahhor asarlaridagi keltirilgan voqea-hodisa doir qarashlarimiz maktab davrdan boshlab uyg'ongan, chunki oddiy misol "O'g'ri" hikoyasini olsak, undagi Qobil boboning sodda, ishonuvchanligi bizni puxtalikka, hammaga ham ishonib ketavermaslikka, o'z muqaddas qonunimiz Konstitutsiyamizni chuqurroq o'rganishimizga, haq-huquqimizni yaxshiroq bilishga, ellikboshi, amin, pristavlarga o'xshagan insonlarga qarshi Korrupsiyaga qarshi qonunlarimiz bilan tanishib chiqishimizga undaydi.

Hozirgi kunda biz yoshlar uchun imkoniyatlar shu darajada kengki, ulardan foydalanish o'z qo'limizda.

Yangi O'zbekiston bunyod qilishda o'z rejamizni ishlab chiqishimiz kerak:

O'zligimizni anglash: o'zimizga bo'lgan ishonchimizni uyg'otishdan boshlanadi;

O'z tilimiz sofligini saqlash: bunda o'z ona tilimizda gapirar ekanmiz, undagi boshqa tildagi so'zlarni chiqarib, shevalarimizdagi mos so'zlar bilan almashtirib qo'llash, terminlarni o'rganib, o'z tilimizdagi so'zlar orqali moslashtirishimiz, o'zimiz sof tilimizda gapirishga o'rgatish va amalda sinash;

Sog'lig'imizga g'amxo'rlik qilish: biron jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanib turish sog'lom fikrlash uchun zamin yaratadi. Hamma narsani vaqtida amalga oshirishga harakat qilish: Vaqtida ovqatlanib, dam olish, kitob o'qishga vaqt ajratish, ilmiy ishlar, erishilgan bilan tanishishib chiqish, amalda sinab ko'rish

Qiziquvchanlikdan to‘xtamaslik;

Texnik va axborot vositalarni puxta o‘zlashtirish ham yaxshi natijalarga olib keladi.

O‘zidan katta bo‘lgan, yutuqlarga erishgan insonlar bilan ham fikr bo‘lish, ulardagi ko‘nikma va malakalar biz uchun yangi qirralar ochimiz uchun zamin bo‘ladi deb o‘ylayman.

**30.04.2022**

### **ONANING MEHRI BIR QUYOSH**

“Ona” so‘zi naqadar mo‘tabar, bu so‘z qalbimizdan otashin kuy kabi chiquvchi, doimo bu ulug‘ inson tomon intilamiz, ularning har bir so‘zi biz uchun buyuk qudrat ega.

Ona—biz uchun kuyunuvchi, bizni deb harakat qilib, o‘zi uchun yashamasdan, bizning yuksalishimizga undovchi, orzularini biz uchun taqdim eta oladigan, qalbimizda ishonch tuyg‘usini uyg‘otgan poyida jannat jo bo‘lgan zot.

Onamiz bizning kichik vatanimiz, chunki 9 oy qornida qo‘nim topganmiz. Dunyo yuzin ko‘rib, mehri tafti ila ulg‘ayamiz. Ilk so‘zni aytishimiz, ilk qadam tashlashimizni ko‘rib quvongan, qo‘lchalarimizni ushlab, dadil qadam yurishimiz uchun zamin yaratgan, hatto shu qo‘lchalarimizni tutib bog‘chaga va maktabga olib borib, ustozimiz, murabbiyimizga topshirishgan, kelajagimizni o‘ylab tunlarni bedor o‘tkazgan onamiz hisoblanadi.

Men onajonimdan ko‘p narsani o‘rgandim, hayotiy saboqlar oldim, hikoyalari orqali o‘zimga xulosalar chiqardim, menga aytib berishgan qo‘shiqdari orqali qo‘shiqqa mehrim oshdi, biz kasal bo‘lsak davolashlari, parvarishlari orqali, men ham ularga o‘xshab

farzandlarimning biron joyi og'risa bag'rimga bosib, kerakli muolajalarni shifokorlarga yozdirib, o'zim davolashni boshladim.

Ular menga: “Sen ijodkorsan, chunki yozgan insholaring ustozingni yig'latgan, sen barini uddalaysan, o'qishga kirishga biliming yetarli o'qishga hujjat topshir, men senga ishonaman”, — deyishdi, menga bu so'zlari turtki bo'lib, universitetga o'qishga kirdim va ijodkorga aylandim: maqolalar, hikoyalar yozishni boshladim. Onalar shunday farzandini olg'a intilishi uchun qobiliyatini baholay oladi, ishonchi farzandni yuksaltiradi.

Volidam dadam va biz uchun ko'p kiyimlar to'qib berishardilar, havas qilib qizlar uchun kerakli bo'lgan hunarni o'rgandim: tikuv-bichuvchilikni, pazandachilikni, rasm chizishni, qo'shiq hirgoya qilish orqali uy yumushlarni bajarishni va boshqalarni.

Onajonim qaynonalarini duolarini olgan inson, chunki doimo buvijonim onajonimni hammaga maqtashlarini: “Soliyaxon kelinim zo'r, tilini shirinligini aytmaysizmi? Doimo menga yoqadigan osh-ovqatlar qiladigan pazanda, sog'lig'imga e'tiborli, g'amxo'r, o'g'lim va nevaralarimga mehribon, farzandlarining rohatini ko'rsin!” ko'p bora eshitganman. Hatto ota-onam buvimning umrlarining oxirigacha atroflarida parvona bo'lishdi.

Onalar uchun farzand sog'-omon o'ssin ekan, bir dard kelsa bolasiga, uning uchun yuz dard bo'lar ekan. Esimda, 7-8-sinflar oralig'ida mening oyog'im oqsoqlay boshladi, dadajonim bilan onajonim meni Farg'onadagi mashhur rus er-xotin shifokorlarga olib borishdi, bu shifokorlar meni tekshirib: “Qizingizni nogironlar ro'yxatiga kirgizinglar, aravacha olib bersalaring ham yaxshi bo'ladi, kelajakda umuman yura olmay qoladi. Oyoqlari ishlamay nogironga aylanadi”—deyishdi. Bu gaplar onamga ta'sir qilib darrov ozib ketishdi. Dadam ularning gaplariga ishonishmadi: Mening qizim sog'lom, bo'lmagan gap”— deya meni onajonim bilan birgalikda Toshkentga olib ketishdi, shifokorga ko'rsatishganda: men og'ir

ko'targanim uchun umurtqa pog'onamda churra paydo bo'lganini, davolansam yo'q bo'lib ketib, avvalgi holimga qaytishimni aytishdi va onam ikkalovimizni shifoxonaga joylab Beshariqdagi uyimizga qaytishdi.

Davolanib, uyga qaytganimizdan so'ng Beshariqdagi duolar o'qib paxta yog'i bilan uqalovchi tatar onaxonning oldilariga olib borishdi. Yurishim ancha yaxshilandi, lekin oyog'im o'z-o'zidan qayrilib ketardi. Jizzaxga bir olim professorning oldiga olib borishdi, u meni ko'rib, hammasi yaxshi bo'lishini aytdi. U tashkillashtirgan 10 kunlik mashg'ulotlarga bordim. Natijasi zo'r bo'ldi: yugurishga qiynalardim, bemalol yuguradigan bo'ldim, sog'liqlarim ancha tiklandi.

Bu holat yana qaytalanmaslik uchun dadajonim bilan onajonim Chirchiqda yashovchi bir tabib ayolning oldiga olib borishdilar, bu yoshi ulug' onaxon ot yog'i, asal, seryog'dan ajoyib qorishma tayyorlab berdi (oyog'imga surish uchun), turnikda osiltirdi, doimo turnikka osilib mashqlar qilishimni tayinladi.

Vaqt o'tgan sari oyog'imning oqsoqlanishidan asar ham qolmadi. Sog'lig'im tiklandi ota-onamning sa'y-harakatlari bilan.

Onajonim ham, dadajonim ham bizning sog'lig'imizga bee'tibor bo'lishmadi. Biz bilan basketbol, shashka o'ynashardilar, menga to'p tosh o'yinini o'rgatishgan, ukamga soqali gendirak, lamka(oyoqda yerga tushirmasdan tepib o'ynaladigan qo'rg'oshin eritilib, bir parcha teriga yopishtiriladi) yasab berishardilar. Dadajonim har kuni bizni ozonda soat 6 da yugurishga va tennis o'ynashga olib ketishardilar, kelishimizga onajonim nonushta tayyorlab turishardilar. Biz nonushta qilib maktabga yo'l olardik.

Bizni o'ylab dadajonim Toshkentga ishlarini ko'chirishdi, onajonim bozordan ijaraga joy olib, savdo-sotiq bilan

shug'ullanishdi, uyda tikuv sehi ochishdi, bir qancha qizlarni ish bilan ta'minlashdi.

Hozirgi kunda uydalar, 10 nevaralarning sevimli va mehribon buvijonisiga aylanishgan.

Ona shu darajada buyukligiga tasannolar aytgim keladi, chunonchi hech kim bu insonning o'rnini bosa olmaydi. Men ham ona bo'lib, o'z farzandlarimni parvarishlar ekanman, onajonimga ham bizni katta qilishlari oson bo'lmaganligini tushundim, ularning naqadar qadarli, mo'tabarliklarini insonliklarini qalban his qilaman, rostdan ham "Jannat onalar oyog'i ostidadir deganlari bejiz emas ekan". Ularning mehrlari quyosh nuri kabi cheksiz.

22.09.2023

### **BUVIMNI ESLAB**

Bolalik paytimdan buvim yonlarida ko'p bo'ldim. Bolalik paytimizda orqalariga opichlab, katta bo'lsak yetaklab yo'laklar oralab, bog' va dala tomon yo'l olardilar. Yam-yashil dala tomon yurganimizda, toza havo qo'ynida ariqlardagi suvlarni jimirlab oqishini kuzatardik, anhorda esa baliq misoli suzib, cho'mildik. Jiyanimiz esa kichik qo'lchalari bilan toshlar terib, suvga otib, suvning sachrashini maroq bilan kuzatadi.

Buvim bizga dala va bog'ni ko'rsatib:-Bu yerga amaking makka ekdi, bu tomonga bug'doy ekdi, bog'da shaftolilar rosa ko'p meva tugdi, men esa bog'ning chetlariga oshqovoq va loviya ekdim, pishganda kelsalaringiz maza qilib yeysizlar, olib ketasizlar. Yuringlar ko'rsataman.

—Xo'p buvi.

—Amaking suv qo‘ygan ko‘rinadi, ekinlar rosa suv ichibdi. Loyni bosmasdan quruq joydan yuringlar, oyoqlaring loyga botib qolmasin"-deyishadi.

Biz dala va bog‘ning go‘zalligiga mahliyo bo‘lib ortlaridan borib, urug‘idan chiqqan yangi nish urgan loviya va oshqovoqlar niholini tomosha qilamiz. Keyin shiyponga yo‘l olamiz. U yerda pilla qurti boqilishini, oppoq qurtlarning tut shoxiga chiqib olib barglarni yeyishini kuzatamiz, shiypon yonida molxona bo‘lib, u yerda golland mollarning o‘tlarni maroq bilan yeyayotgan bo‘ladi. Bu mollarning biron marta ovoz chiqarib marashini eshitmaganman. Atrofdagi manzarani tomosha qilib hammamiz ortga qaytamiz.

Bolaligimni eslasam Buvijonim yodimga tushadilar. Hozirda ular yonimizda yo‘q, dala bo‘ylab sayohat ham yo‘q.

## **BERDIBOYEVA SALIMAXON SHOKIRJON QIZI HOJI ONAMIZ XOTIRALARI MANGU**

Berdiboyeva Salimaxon Shokirjon qizi 1938-yilda tug‘ilganlar, millatlari o‘zbek, otalarining ismi Shokirjon Madamin og‘li, onalarini ismi Zuhra buvi. Ko‘p farzandli oilada tug‘ilganlar, lekin ularning ko‘plari bolaligida va o‘smirligida vafot etishgan. Salimaxon buvimizning bitta opalari va bitta akalari bo‘lgan. Akalarining ismi Abdulboqi bo‘lgan, yong‘in xavfsizligi bo‘limida haydovchi bo‘lib ishlaganlar, bo‘sh vaqtlarida hunarmand kosib-etikdo‘zlik bilan shug‘ullanganlar.

Salimaxon buvimiz oilada kichik farzand bo‘lganlar, katta e‘tiborda, mehrda ulg‘aydilar. Alohida buvimiz katta bo‘lgan hovli uy haqida aytsam: hovli uy—mahalladagi eng katta hududga ega bo‘lgan. Xonadon to‘rtta xona, bitta ayvondan va katta bog‘dan iborat bo‘lgan. Xonadon doimo ozoda, saranjom-sarishta tutilgan. Har bir



xonaning eshigi go'zal naqshlar bilan ishlangan, chiroyli milliy naqshlar bilan to'qilgan gilamlar solingan.

Buvimiz katta bo'lgan hovlidagi bog'—mahalladagi eng go'zal, hamda katta bo'lgan, bu bog'da turli-tuman mevali daraxtlar, sabzavotlar, poliz ekinlari, turli-xil gullar: gulxayri, gultoji, chinni gul, xina, rayhon, atirgullarning turli navlari yetishtirilgan.

Oilada farzand tarbiyasiga juda katta e'tibor berilgan, ayniqsa axloqiy, aqliy, mehnat, estetik tarbiyaga. Mahalla qizlari, ayollari asosan do'ppi jiyak va lozim jiyaklarini to'qish bilan shug'ullanganlar. Bizning buvimiz juda serg'ayrat, faol, mehnatkash bo'lganlar, shuning uchun mahalla qizlarini ichida do'ppi jiyakni eng ko'p to'qish musobaqasida hammani yutganlar.

Bir kuni uzun xodani sudrab kelayotganlarida Berdiboy buvimiz ko'rib: "Bu qiz, kichkina bo'lishiga qaramay katta xodani o'zi sudrab kelyapti, bu qizni kelin qilaman"-deb niyat qilib qo'yishadi.

Salimaxon buvimiz o'n to'qqiz yoshlarida turmushga chiqdilar. Buvimizni dugonalari ancha yoshroq, ertaroq turmushga chiqishgan. Buvimiz bilan Usmonali bobomizning fotihalari bobomiz harbiy xizmatda bo'lgan paytda bo'lib o'tgan, ilgari harbiy xizmat uch yil bo'lganligi sababli to'y vaqti cho'zilgan.

Bobomiz bilan buvimiz bir-birlarini yaxshi ko'rib turmush qurishgan.

Yoshliklaridan tadbirkorlikni, savdo-sotiqni o'rganganlar. Ilgari Qo'qon shahrida bozor haftada ikki kun: chorshanba va yakshanba kunlari bo'lar edi, shu kunlari buvimiz qo'shni ayollar bilan o'zlari to'qigan do'ppi va lozim jiyaklarni sotish bilan shug'ullanganlar. Keyinchalik ushu faoliyatlarini oilaviy tijorat darajasiga olib chiqdilar.

Salimaxon buvimiz faol, mehnatsevar, o'ta mas'uliyatli bo'lganliklari sababli mahallada, mehnat jamoasida katta hurmatga ega bo'lganlar. Paxta parvarishi va terimi mavsumlarida eng yuqori natijalarga erishganliklari sababli turli mukofotlar, ko'krak nishonlar bilan taqdirlanganlar. Uchko'prik (ilgarigi Leningrad rayon) tuman kengashi deputati etib bir necha bor saylanganlar.

Tarbiyachilik kursini bitirib, sertifikat olganlar.

Buvimiz mahallada ilk bor bolalar bog'chasi ochilishida faol ishtirok etganlar. Mahalla guzarida bolalar bog'chasining zamonaviy binosi qurilgan, ushbu bog'chada tarbiyachi bo'lib ancha yillar ishladilar.

shug'ullanish juda ham qiziqarli bo'lgan, lekin tarbiyachilarning oylik maoshi juda oz bo'lganligi sababli, bolalar bog'chasidan ishdan bo'shab, oilaviy tijorat bilan shug'ullanishni boshlaganlar.

Oilaviy tadbirkorlikni do'ppi jiyakni bozorda sotish bilan boshladilar. Ushbu faoliyat quyidagi jarayonlarni o'z ichiga olardi:

- 1) atrofdagi qo'shni mahallalardagi qizlar, ayollar to'qigan jiyaklarni ulardan naqd pulga sotib olish;
- 2) bo'yash;
- 3) yuvish;
- 4) o'rash;
- 5) bozorga olib borib mijozlarga sotish.

Do'ppi va lozim jiyaklari tabiiy mahsulotlardan: toza ipak va paxta iplaridan to'qilgan.

Berdiboyevlar oila a'zolarining asosiy mehnat faoliyatlari tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga qaramasdan, usbu faoliyatni olib borishga davlat tomonidan qonuniy ruxsat etilmagan. Ittifoq kommunistlar tuzimi davrida xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish, atrofdagilarga qaraganda boyroq yashashga ruxsat etilmagan. Shuning uchun oila a'zolari bir paytning o'zida ikki sohada ishlashga majbur bo'lganlar. Salimaxon buvimiz Oxunboboyev nomli kolxozda ishchi bo'lib, paxta yetishtirish va terishda ham faol bo'lganlar. Kolxozda har bir ishchining har kuni bajarishi kerak bo'lgan ish hajmi(normasi) bo'lgan. Buvimiz juda ham serg'ayrat, mehnatkash bo'lganliklari sababli ham kolxozda ham tadbirkorlik bilan shug'ullanishga ulgurur edilar, bunda farzandlar faol yordamchi edilar. Oiladagi oltita farzandlar: uchta o'g'il va uchta qizlar kun tartibi aniq belgilangan bo'lib: tushligacha maktabda o'qish, ovqatlanish, kun botguncha dalada ishlash(ya'ni buvimizga belgilangan ish hajmini bajarishga yordam berish), kechki ovqatdan keyin hamma oila a'zolari hamjihatlikda do'ppi jiyakni bo'yash, o'rash, bozorga tayyorlash bilan shug'ullanishgan. Oilada erta yotib, erta turishga katta e'tibor berilgan, shuning uchun oilada baraka, to'kin-sochinlik, hamjihatlik bo'lgan.

Buvimiz sotuvga tayyor bo'lgan do'ppi jiyaklarni Qo'qon shahrida chorshanba, yakshanba kunlari va Marg'ilon shahrida payshanba kunlari bo'ladigan bozorlarda mijozlarga sotishgan. Savdo-sotiqda buvimiz halollikka katta e'tibor berishgan, mijozlarga mahsulotlarni qarzga ham ishonib berar edilar ham, biron inson to'y munosabati bilan pul kerak bo'lib qolsa, yordamlarini ayashmagan, bergan yordamlaridan hech nima umid qilishmagan. Shuning uchun ham buvimni taniganlar: "Salimaxon bemalol butun Qo'qonni sotib ola oladigan daraja puli ko'p"-deyishganlar.

Buvimiz sayohatni yaxshi ko'rar edilar, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'izistonning ko'plab shaharlarida, Moskva

shaharlarida tijorat va sayohat bilan bo'lganlar, Haj ziyoratiga ham borib kelishganlar.

Buvimiz xushchaqchaq, gapga usta, hamma bilan oson til topisha oladigan inson edilar. Mahalladagi barcha tadbirlarda faol ishtirok etar edilar. Vafot etishlaridan bir hafta oldin ham mahalla ayollari bilan tadbirda ishtirok etganlar. Buvimiz juda ham qo'llari ochiq, saxiy bo'lganlar, xayr-ehson qilishni yaxshi ko'rar edilar, biror joyga mehmonga borsalar dasturxonga eng asl ne'matlarni o'rab olib borishardi.

Salimaxon buvimiz eng mehribon ona, eng mehribon buvijon bo'lganlar. Mahallada qo'ni-qo'shnilarning yuksak hurmatiga ega edilar. Mahalla ayollari maslahatga chiqishardi. Mehmonlarni yaxshi ko'rardilar, ularga shirin taomlarni pishirib mehmon qilardilar.

Tandirda shirin, mazali non, somsalar, ayniqsa bahorda ko'k somsalarni, o'choq olovda osh, dimlama, qaynatma sho'rva, shavla, chuchvara, manti qozonda mantini go'shtli, ko'katli, oshqovoqli turlarini juda ham shirin tayyorlar edilar.

Har yili bog'ga oshqovoq ekishar edi, pishganda hamma farzandlariga, nevaralariga, qo'shnilarga, qarindoshlarga tarqatib berishni yaxshi ko'rardilar.

Quda-andachilik munosabatlarda hamma o'rnak olsa bo'ladigan darajadagi fazilatlari bor edi:

- 1) qudalarga doimo samimiy va hurmat bilan munosabatda bo'ldilar;
- 2) farzandlarning oilasida biror nizo chiqsa, hal qildilar, urush-janjal qilmadilar;
- 3) yaxshi, adolatli bo'ldilar.

Buvim ta'tilda ukam ikkimizni bozorga olib borishardilar va bizga o'zimizga yoqqan narsani olishimiz uchun pul berishganida o'quv qurollari, maktab uchun darsliklar sotib olardik. Buni ko'rgan sheriklari: "Biz nevaralarimizga pul bersak yeydigan narsalar sotib olishadi, sizning nevaralaringizning kitoblar sotib olishiga havas qildim"-deyishardi.

Buvim menga turli xil afsonalar, rivoyat, ertak va latifalarni aytib berishardilar.

Barchasi hamon yodimda. 7-sinfni bitirib, yozgi ta'tilda sochimni uzunlashtirish uchun 40 yuvar qilgani buvimning oldilariga borganman. Har kuni kechi payt yangi qo'shnilarnikidan qatiq olib boshimni yuvishga yordam berishardilar, keyin oppoqqina Hojidan olib kelingan ro'molni boshimga o'rashimga berishgan. Shu orada Namanganga o'zlari to'qigan do'ppi jiyaklarni olib borib, lozim jiyakka almashtirgani meni olib ketishgan, tanishlarining uylarida qolganmiz, uy egasining yolg'iz qizi bo'lib, men bilan tengqur edi, kechasi joyini ho'llab qo'yib teskarisiga joyini solib olganiga ko'zim tushib qoldi. U qiz bilan dugonalashdik, sochimni yuvish uchun qo'shnilarnikidan 2 kosa yog'li qatiq olib keldik. Bittasini ovqat bilan ichdik, keyingisiga sochimni yuvib, ro'molimni o'rab oldim. Ertasiga uyga qaytdik. Buvim menga ko'p kitoblarni qo'shiqqa o'xshash ohangda, juda chiroyli tarzda o'qib berishardilar, zavq bilan tinglab o'tirardim.

Buvim 2022-yil dekabr oyida vafot etishdi. Xotiralari doimo abadiy.

### III. BUVIM AYTGAN AFSONA VA RIVOYATLAR

#### AJINA

Mirzaxo'ja qishlog'ida har shomda paydo bo'ladigan ajina bor ekan. U har doim masjidida shom namozini o'qib chiqqan odamlarni chimdib, g'ashiga tegar ekan. Bir kuni Madamin buva shom payti namoz o'qib, mahallamizdagi masjidan chiqqanlarida bu ajinani tovoni yo'q, bir qo'lida esa kitobi bor holda odamlarni chimdib, u yog'idan o'tib, bu yog'idan o'tib insonlarga tegajoqlik qilib yurganini ko'rib qolishibdi. Shundan so'ng uning yoniga borib uni itarishganda, orqasi tomoni bilan yiqilib tushibdi, keyin qo'lidagi kitobni olib qo'yibdilar. Har kecha ajina borib bu buvadan kitobni qaytarib berishini so'rab yolvoradigan bo'libdi.

Va nihoyat:

— Jon buva, iltimos kitobimni bering, nima desangiz, aytganingizni qilaman.

Madamin buva:

— Bu kitobni bir shart bilan beraman, 7 avlodimizgacha ko'zga ko'rinmaysan, zulm-zahmat yetkazmaysan va bizni tinch qo'yasan.

— Xo'p, va'da beraman kitobimni qaytarsangiz bo'ldi, 7 avlodingizgacha hech kimga ko'rinmayman, zulm-zahmat yetkazmayman, — deb va'da beribdi u.

Buva kitobni qaytarib berishibdi, shu zahotiyoq u ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Bu Salimaxon xoji onamizning bolalim chog'larimda menga aytib bergan hikoyalaridan biri, men 4-avlodlaridan biriman.

12.08.2022-y.

## HOJATXONANI OZODA TUTISH HAQIDA

Xalqda: “Hojatxonani 40 kun supurib yig‘ishtirsang, 41-kuni Xizr senga ko‘rinadi, uning bosh barmog‘ida suyak bo‘lmaydi, shu barmog‘ini ushlab nimaki niyat qilsang, bari ushaladi”,—degan aqida bor.

Buni eshitgan Saida ismli qiz har kuni hojatxonani supurib, tozalab qo‘yishni odat qilibdi. Hojatxonani tozalashining 41-kuni bir oppoq libosli, oq soqolli bir nurli chol paydo bo‘libdi va qiz darrov bu zotning bosh barmog‘ini ushlabdi, barmog‘ining suyagi yo‘q ekan.

Xizr:

— Tila tilagingni,—deya so‘rabdi.

Shunda qiz yura olmaydigan otasiga sog‘liq tilab, oyoqlari yurib ketishini so‘raganida Xizr:

—Tilaging amalga oshdi, —deb ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Qiz otasining oldiga yugurib borib qarasa, otasi turib uzumlarning ortiqcha bargini tokqaychida kesa yotgan ekan. Qiz tilagi amalga oshganini ko‘rib xursand bo‘libdi.

Buvim bu afsonani bizni hojatxonani ozoda saqlashimiz uchun ta’sirli tarzda aytib berishardilar.

26. 05.2024

## **YULDUZGA AYLANGAN ZUHRA**

Zuhra ismli qiz har kun tong saharlab turib, ko'chalarni supurib, yulduzlarga aylanib qolishni niyat qiladi. U shu darajada yulduzlarga havas qiladi, ularday samoda turib yer yuzini kuzatishni istaydi.

Bir kuni tong saharda turib, ko'cha supirayotganda osmonga ko'tarilib, yulduzga aylanadi. Zuhra Yer yuzini tomosha qilish uchun hamma yulduzdan oldin osmonda paydo bo'lib, saharga yaqin boshqa yulduzlardan keyin yo'q bo'ladi.

Bu afsonani misol qilib, buvim bizga saharda turib, uyimizning atrofini supurayotganimizda niyat qilsak, ijobat bo'lishini aytishardilar.

### **KIM OYATAL KURSINI O'QISA BARCHA YOMONLIKDAN OMONDA BO'LADI**

Ubay ibn Ka'b roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Otam shunday dedi: «Xurmo quritadigan joyimiz bo'lar edi. Men u yerdan xabar olib turardim. Har kecha xurmo kamaya boshladi. Shuning uchun bir kecha uni qo'riqlab yotdim. Qarasam, navqiron yigit ko'rinishidagi bir jonzot ekan. Salom bersam, alik oldi.

– Jinmisan, insonmisan? – dedim.

– Jinman, – dedi.

– Qo'lingni uzat, – dedim. Qarasam itning qo'li, itning yungi. «Jin mana shunday bo'ladi», deb o'yladim.

– Jinlarning ichida mendan chopag'onim yo'q, – dedi.

– Nima uchun bu ishga qo'l urding, – dedim.

– Menga seni sadaqa qilishni yaxshi ko'radi, deyishdi. Shunig uchun yeguligingdan olgim keldi, – dedi.

– Bizni sizlardan nima himoya qiladi? – dedim.



– Mana bu Oyatal Kursiy, – dedi.

Men uni qo‘yib yubordim. Keyin borib, bor gapni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga aytib berdim. Shunda u zot: «U to‘g‘ri aytibdi», dedilar.

Buni Ibn Hibbon rivoyat qilgan.

Bu rivoyatni o‘qib, buvimning aytib berishgan Oyatal kursi haqida hikoyatlari esimga tushib ketdi.

Bir kuni ikki kishi janjallashib qolibdi, birinchi kishi: "Falon kuni seni uxlayotganingda o‘ldiraman",—deb ketibdi.

Ikkinchi odam qo‘rqanidan nima qilishni o‘ylab ko‘chada parishon turganida, yonidan bir darvesh o‘tib ketayotib, unga razm solib: “Sizga nima bo‘ldi, nega parishonsiz”, — deb so‘raydi.

Shunda u kishi unga bir odam tunda kelib, uni o‘ldirishini aytib beradi.

Darvesh: “Kimki yotishdan avval 11 marta Oyatal kursini o‘qib yotsa, unga hech kim yaqin kela olmaydi, xatto dushmanga ko‘rinmaydigan bo‘lib qoladi”, —deb yo‘lini davom ettiribdi.

Qotildan omon qolish chorasi borligini bilgan kishi juda xursand holda xotirjam bo‘lib uyiga kirib ketibdi. Tunlari esa bamaylixotir uxlay boshlabdi.

Qotil kelar kechasi bo‘lganda 7 marta Oyatal-kursini o‘qib uxlab qolibdi. Dushmani yotoqxonaga kirib qarasa ko‘rpa ustida boshsiz odam yotgan emish, qo‘rqanidan orqasiga qaramay qochib qolibdi.

Shunday qilib, bu inson o‘limdan qutulib qolgan ekan.

2022.

**MUNDARIJA:**

<b>№</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>Beti</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
1.	Muallif haqida	4
I	<b>SHE'RIYAT OLAMI</b>	
2.	Saharlab	5
3.	Buyuk jadidlar avlodlarimiz	11
4.	Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!	15
5.	14-yanvar "Vatan himoyachilar" kuni bilan!	17
6.	Umrimiz guli, quyoshisan ayol	18
7.	Jannatmonand yurt	19
8.	O'zbek tilim	20
9.	Yoshlar — kelajak poydevori	21
10.	Hayot davom etaveradi	23
II	<b>XOTIRALAR OLAMI</b>	
11.	UMSONANING KUNDALIGI: Bozordagi "kuzirlar"	25
12.	UMSONANING KUNDALIGI: Mo'jizaviy chilla	29
13.	Onaning mehri—bir quyosh	41
14.	Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'limiz bilan bunyod etamiz	44
15.	Buvimni eslab	47
16.	Berdiboyeva Salimaxon Shokirjon Qizi hoji onamiz xotiralari mangu	48
III	<b>Buvim aytgan AFSONA VA RIVOYATLAR</b>	

17.	Ajina	54
18.	Hojatxonani ozoda tutish haqida	55
19.	Yulduzga aylangan Zuhra	56
20.	Kim Oyatal kursini o'qisa barcha yomonlikdan omonda bo'ladi	56

# IJOD SEHRI VA MO‘JIZALARI

IJODIY TO‘PLAM

**Muallif:** Nargizabonu **Mamadaliyeva**

**Muharrir:** Sevarabonu **Yunusaliyeva**

**Dizaynerchilar:** Mirakbarjon **Hasanov,**

Muslimabonu **Hasanova**

**Sahifalovchilar:** Fotimabonu **Xasanboyeva,**

Xusanboy **Xasanboyev**

**More  
Books!** 



**yes**  
**I want morebooks!**

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.


Buy your books online at  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**



[info@omniscryptum.com](mailto:info@omniscryptum.com)  
[www.omniscryptum.com](http://www.omniscryptum.com)

OMNIScriptum 

## IJOD SEHRI VA MO'JIZALARI

Ijod — insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod sehri—insonlarni yozishga va yaratuvchanlikka undaydi, kitobni o'qish, uning estetik zavq uyg'otishi, hayratlantirishi, uning asosida tarbiyaviy ahamiyati bo'lishining o'zi—mo'jizadir. Bu to'plamda ijodkorning xotiralar mahsulini ko'rishingiz mumkin! Ushbu to'plam barchaga manzur tushadi degan umiddamiz!

**Mamadaliyeva Nargizabonu Umurzaqaliyevna**  
1987-yil 12-dekabr kuni Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida tavallud topgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi va shu fakultet lideri. "Yuksalish sari—barcha uchun" loyihasi asoschisi. Bir qancha antologiyalar va kitoblar loyihasi asosida tashkil etilgan.

